

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,  
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK  
VA TARJIMASHUNOSLIK

# UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,  
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND  
TRANSLATION STUDIES

2023 Vol. 3 (3)

[www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)  
[www.uzlctscls.tsuull.uz](http://www.uzlctscls.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Uzoq Jo'raqulov  
Nozliya Normurodova  
Ziyoda Teshaboyeva

**Mas'ul kotib:** Mahmadiyor Asadov

### **Tahrir kengashi**

Islomjon Yoqubov, Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatova, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Gulnoraxon Niyazova, Ra'noxon Xudjayeva, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Shahnoza Asqarova, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillayev.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi №308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik” seriyasi – filologiyaning ayni sohalarini qamrab olgan “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

O‘zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

**Email:** [uzlctscls@navoiy-uni.uz](mailto:uzlctscls@navoiy-uni.uz)

**Website:** [www.uzlctscls.tsuull.uz](http://www.uzlctscls.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### TAQRIZ

#### **Uzoq Jo'raqulov**

Matn nazariyasi istiqbollari (Professor Shuhrat Sirojiddinovning "Amir Alisher" kitobi haqida).....8

### JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

#### **Иманғазы Нұрахметұлы, Uzoq Jo'raqulov**

Қазіргі заманғы Қазақ романдары хақында.....16

#### **Olmos Xurramov**

Tarixiy hikoya imkoniyatlari.....23

#### **Komiljon Hamroyev, Shahnoza Siddiqova**

Hikoya syujetining nazariy talqinlari.....29

#### **Yulduz Ziyayeva**

"Sarob" romanida "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazi.....40

#### **Nilufar Jumayeva**

"Askar mukofoti" asarida avtobiografik romanga xos xususiyatlar.....46

#### **Osiyo Siddiqova**

Satira va yumorga oid ayrim mulohazalar.....54

#### **Gulhayo Isabayeva**

"Ona" obrazi tasvirlangan zamonaviy qissalarda syujet tiplari.....61

#### **Sanobar Saydazimova**

Zamonaviy qissalarda paranormal epizod tasviri.....72

#### **Munira Niyazova**

Rus adabiyotshunosligida sentimentalizm.....79

#### **Nigora Samandarova**

Tarixiy shaxs va tarix haqiqati ifodasida an'anaviy motivlar talqini.....85

### JAHON DRAMATURGIYASI: TARJIMA VA ILMIY TALQIN

#### **Dilafroz Ochilova**

Ingliz klassitsizm dramasi intertekstuallikning sharqona motivi.....96

#### **Nafisa Tursunova**

Shekspir dramaturgiyasida telba obrazining badiiy talqini.....104

## Tarixiy hikoya imkoniyatlari

Olmos Xurramov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada tarixiy hikoya imkoniyatlari va unda hikoya muallifi asosan tarixiy manbalarga, tarixiy dalillarga asoslanganligi ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda zamonaviy o'zbek nasrida Boburning realistik hikoyalash an'analari ma'lum ma'noda davom ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu jihat A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi romanlarida yaqqol ko'rinadi. Shuningdek G.G'ulom, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov, X.Sultonlar nasrida ham boburona hikoyalash usullari ko'zga tashlanganligi haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** *tarixiy hikoya, hikoya janri, Bobur va boburiylar obrazi, tarixiy manba.*

### Kirish

Barcha nazariy adabiyotlarda qayd etilishicha, hikoya janrida qahramon hayotining bir lavhasi badiiy aks ettiriladi. Tarixiy hikoyalarda ham xuddi shu tamoyilga amal qilinadi. Farq shundaki, zamonaviy hikoya muallifi ko'proq birovning og'zidan eshitib ta'sirlangan yoki o'z ko'zi bilan ko'rib guvoh bo'lgan favqulodda voqealarni qalamga olsa, tarixiy hikoya muallifi asosan tarixiy manbalarga, tarixiy dalillarga asoslanadi. "Hikoyada tasvirlangan voqea o'z mohiyati va ahamiyati jihatidan epik turning roman, povest kabi janrlaridan farqlanmasa ham, biroq tasvirning ko'lami, syujet va kompozitsiyaning nisbatan soddaligi, bayonning asosan bir shaxs tomonidan olib borilishi jihatidan farqlanib turadi" [Хотамов, Саримсоқов 250].

"Hikoya odatda qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi H.ning hajman kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo'lishini taqozo etadi... Hikoya ostida yotgan voqeaning yaxlit, tugal bo'lishi talab etiladi, buning uchun u o'zining

<sup>1</sup> Xurramov Olmos Uralovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi.

**E-pochta:** khuramov.o@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0009-0001-4388-4526

**Iqtibos uchun:** Xurramov, O.U. 2023. "Tarixiy hikoya imkoniyatlari" *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 23-28.

boshlanishi va yakuniga ega bo'lishi (masal, latifadagi kabi) lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi" [Куронов 2010, 395.].

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti o'ta qiziqarli, sarguzashtli, dramatism va tragik vaziyatlarga boy bo'lgan murakkab hayot yo'lidir. "Boburnoma" va boshqa tarixiy asarlarda tasvirlangan u haqdagi barcha voqea-hodisalar kichik lavha sifatida yaxshi hikoya uchun asos bo'lishi mumkin. Masalan, Boburning Samarqandni tashlab chiqishi, Xoja Ahror Valiyni tush ko'rishi bilan bog'liq voqea, Afg'oniston yo'lidagi dovonda qor kechishi, malika Bayda tomonidan zaharlanishi, o'limi kabi qator lavhalar mukammal, jahonshumul hikoyalarga mavzu bo'lishi mumkin. Ayni paytda, Boburning o'zi ham o'ta mohir hikoyanavis. Uning o'zi va o'zgarlar haqidagi voqealarni hikoyalash yo'li, uslubi, kompozitsiya va syujetni qurish mahorati, obraz va portretni tasvirlashdagi badiiyati har qanday hikoyanavis uchun maktab bo'ladigan darajada mukammaldir.

Bobur hikoyanavisligi bir nechta bosqich va darajalarga ega. U birinchidan, o'zigacha yashab o'tgan tarixiy shaxslar haqida mahorat bilan hikoya qiladi. Ularning hayotlarida kechgan muhim va qiziqarli voqealarni tanlay biladi. Portretlari va xarakterlariga doir muhim chizgilarni mukammal darajada beradi. Ikkinchidan, Bobur o'z davri ijtimoiy hayotini, jonli muloqotlar jarayonini juda yaxshi his qiladi. Zamondoshlarini bir ruhshunos sifatida kuzatadi. Ularning tabiatlari, maxsus fe'l va odatlari, yashash tarzlari, hatto kiyadigan kiyimlarigacha e'tibor qaratadi. O'z hikoyalarida bularning barchasini mukammal darajada badiiy tasvirleydi. Uchinchidan, Bobur o'z karomatli tushlari vositasida kelajak voqealarini ham tasvirlagan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, sahobalar, avliyo zotlarga doir tushlarning ham "Boburnoma"da mukammal tasviri keladi. Bularda ham muallifning hikoyalash mahorati sabab tush voqealari o'quvchi ko'z o'ngida real hayotdagidek yorqin gavdalanadi. Chunki Boburning o'zi ilohiy-karomatli tushlarga real qaraydi.

Zamonaviy o'zbek nasrida Boburning realistik hikoyalash an'analari ma'lum ma'noda davom ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu jihat A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi romanlarida yaqqol ko'rinadi. Shuningdek G.G'ulom, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov, X.Sultonlar nasrida ham boburona hikoyalash usullari ko'zga tashlanadi. Ammo afsuski, bunday o'ziga xos an'ana o'zbek nasrida izchil tarzda kuzatilmaydi. Shu bilan

birgalikda, zamonaviy o'zbek nasrida Bobur va boburiylar haqidagi hikoyalarning nihoyatda kamligini ham alohida ta'kidlash joiz.

X.Sultonning "Oy botgan pallada", "Nuqta", B.Omonning "Boburning bolaligi", M.Uzoqovning "Bobur sog'inchi" hikoyalarinigina janr talablariga to'la javob beradigan asarlar sifatida qayd etish mumkin.

X.Sulton Bobur haqida ikkita hikoya yozgan. Bizningcha, yozuvchining har ikki hikoyasi ham Bobur hayotining muhim pallalarini yoritishi jihatidan muhimdir. Ushbu maqolada yozuvchining "Nuqta" hikoyasi haqida so'z yuritamiz.

Dastlab hikoya sarlavhasi haqida mushohada qiladigan bo'lsak, uning "Nuqta" deb nomlanishining o'zi bir badiiy jumboqdir. Ma'lumki, ma'noni yashirin ifodalash so'z, ibora, jumla va detallar vositasida amalga oshiriladi. Shunda ushbu badiiy unsurlarning barchasi bir emas, biryo'la bir nechta ma'no qatlamlariga ega bo'ladi.

Sarlavha badiiy asar kompozitsiyasining muhim birligi bo'lib, yozuvchining badiiy niyatiga monand holda turlicha vazifa bajarishi mumkin. Ba'zi sarlavhalar o'zida asar mazmunini jamlab namoyon etishi bilan sof mantiqiy mohiyat kasb etadi ("Uloqda", "Oromkursi" kabi). Ba'zi sarlavhalar, ayniqsa hikoya sarlavhalari, badiiy aks ettirilayotgan voqea mohiyatini o'zida ifodalaydi (masalan, "Ko'chki", "Zilzila" kabi). Boshqalari voqea sodir bo'lgan joy nomlari bilan bog'liq bo'ladi ("Qichqiriq", "Oq bino oqshomlari" kabi). Ba'zilarida hikoya qilinayotgan voqea zamiridagi tuyg'u yuzaga qalqib chiqadi va hikoya sarlavhasiga aylanadi ("Bodom qishda gulladi" kabi). Yana bir xil hikoyalarda voqea qahramonining ismi asar sarlavhasiga chiqariladi va h.k.

X.Sultonning ushbu hikoyasida esa "nuqta" so'zi bir nechta ma'nolarda kelganini e'tirof etish mumkin. Birinchidan, hikoya ma'lum ma'noda epistolyar mohiyat kasb etadi. U Boburning o'g'li Humoyunga maktubi asosiga qurilgan. Ma'lumki har qanday xatning oxirgi belgisi – bu nuqta hisoblanadi. X.Sulton hikoyasi ham Bobur maktubidagi so'nggi nuqta bilan nihoyalaniadi.

Ikkinchidan, Bobur xatining mazmun-mohiyatida o'g'lidan har narsaga e'tiborli bo'lish, inshoda zeru zabar, hatto nuqtani ham diqqatdan qochirmaslik haqida so'z boradi. Yozuvchi asarning xulosasida bunga shunday izoh beradi: "Biz ham shu o'rinda hikoyaga nuqta qo'ysak bo'lar. Ammo hikoyaga sig'may qolgan ikki og'iz mulohaza borki, muhtaram kitobxon buning uchun bizni aybsitmas.

Boburdek muhtaram zotning bir nuqta tufayli bu qadar iztirob chekkani bejiz emas edi – hayot buni isbotladi: taqdirning

g'alati o'yinini qarangki, Bobur vafotidan keyin ham zeru zabar jabrini tortadi - uzoq yillar mobaynida nomi "Bobir" deya yozib kelinadi. Faqat uning besh yuz yillik to'yi arafasida nuqtadon bir olim "Bobir emas, Bobur!" deya na'ra tortib chiqadi-yu bu boradagi "g'alati mashhur" bartaraf etiladi.

Bir nuqtaning tarixi, qadri va mavqeyi ana shunday.  
Tamom. Nuqta" [Султон 1993, 228].

Uchinchidan, sarlavhada bu maktub Bobur o'limi arafasida, uning hayotiga taqdirning so'nggi nuqtasi qo'yilishidan bir bahiya oldin yozilganga ishora bor.

Hikoyaning birinchi jumlasini ham so'nggi punktdagi xulosamizni tasdiqlaydi: "Boburning hasratidek uzun yomg'ir..."[Султон 1993, 217]. Albatta, bu hasrat o'limdan qo'rquv hasrati emas. Bu hasrat qatlarida Boburning ulkan jahongirlik yo'li, Vatan hajri, yutuqlari va xatolari mujassam. Yomg'ir detali ham ma'lum ma'noda g'am-anduh va hasrat ifodasini kuchaytiradi. Odatda yomg'ir inson qalbida umr yo'llari va intiho haqidagi o'y-mushohadalarni uyg'otadi. Hasratli xotiralarni qo'zg'aydi.

Hikoyaning keyingi qismlari ham sarlavha va birinchi jumlagi monand holda falsafiy mazmun kasb etadi. Bobur navqiron o'g'liga nasihatimiz maktub bitar ekan, o'zining umri nihoya topayotganiga yana bir bor amin bo'ladi: "Alisherbekning hikmat to'la, dard to'la bayti iqrar tig'i bilan yuragini tilib o'tadi:

Soqol oqi o'limg'a peshravdur,  
Tiriklik sabzasi ichra qirovdur." [Султон 1993, 217].

Bobur o'z o'g'lining navqiron yigitga aylangani, yurt boshqaruvida kamolat hosil qilayotganidan xursand. Farzand ko'rganidan esa boshi osmonga yetadi. Ammo Humoyun maktubidagi hashamdorlik, dabdaba Boburga o'tirishmaydi. Bobur maktublarda ham o'z hayoti kabi soddalik, to'g'rilik va aniqlik bo'lishini istaydi. Humoyun o'z o'g'liga qo'ygan Al'mon ismida ham sun'iy dabdaba, xalq tilini va dilini anglamaslik yotganidan ranjiydi: "Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro'zi qilg'ay, omin yo Robbal olamin, deya davom etdi u.-Otini Al'amon qo'ymishsan. Tengri muborak qilg'ay. Vale bovujudkim, o'zung bitibsen, mundin g'ofil bo'lubsenkim, kasrati iste'mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o'zga mundoq alif-lom otta kam bo'lur..."[Султон 1993,220].

Inshodagi kichik bir xato mutafakkir otani chuqur o'yga toldiradi. Xayolan tarixga safar qildiradi. O'z otasini qatl etgan

Abdullatif, mast holatda nabirasi Mo'min Mirzo o'limi haqidagi farmonga imzo chekkan Sulton Husayn qilmishlarini eslaydi. Ushbu xotiralar uni Vatan haqidagi iztirobli armonlarga yetaklaydi. Vatanni tark etish sahnalari, temuriy shahzodalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, Shayboniy ta'qibi ostida yurganida uni hech kim qo'llamagani kino lentasidek ko'z oldidan bir-bir o'tadi.

Hikoyaning mana shunday o'rinlarida hikoyanavis epistoliar janr chegaralaridan chiqib ketadi. Boshqacha aytganda, bu janr imkoniyatini kengaytiradi. Maktub mazmuniga hikoya qahramoni xotiralarini bog'lash orqali muallif assotsiativ tasvir usuliga murojaat qiladi. Natijada asar badiiyatini oshirishi bilan birga hikoyaning badiiy zamon va makon ko'lamini kuchaytiradi.

Keksaygan shoh va otaning hasrati, arkoni davlat, hashamat va shon-shuhrat ichidagi yolg'izligi maktubdagi shu parcha orqali yaxshi asoslangan. Shu gapni yozgan Boburning chap qulog'i orqasida og'riq turadi, qalam tutgan qo'li titraydi. Bu sof fizik va psixologik holat. Voqelikda ham yomon xotiralar inson ruhiyatida g'ayrioddiy qo'zg'alish uyg'otadi. Quloq orqasining sanchishi ruhiy iztirobning tana a'zosiga bergan salbiy signalidan dalolat beradi. Yozuvchi faqat shu bilan cheklanmaydi. Quloq og'rig'ining tabiiy asoslarini ham beradi. Bu orqali Bobur dardining nihoyatda teran ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma'naviy ildizlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Ko'tali Zarrinda misli ko'rilmagan bo'ronga duchor bo'lgani, oddiy askarlar qatori qalin qorni o'yib yerto'la yasagani, shu joyda tunni g'aribona o'tkazgani haqidagi "Boburnoma"dagi dalilni keltiradi. Beklari Boburni nisbatan qulayroq g'orda dam olishga chorlaydilar: "Axir qaysi yuz bilan borsin? Barcha navkarlari bunda – bo'ron changalida titrab-qaqshab o'tirsa-yu, u issiq g'orda, farog'at og'ushida mudrasa!..." [Султон 1993, 222.]. Bu bilan muallif Bobur tabiatidagi botiniy demokratiya, mardlik, jasorat va irodani ta'kidlaydi. Maktub yozayotgan ota, shonli o'tmish sohibi bo'lgan shoh, umri yaqinlab qolgan yolg'iz odam tarixini bir nuqtaga jamlab, mukammal badiiy palotnoga muhrlashga erishadi.

Xullas, X.Sulton "Nuqta" asari misolida hikoya janri imkoniyatlarini kengaytirgan. Epistoliar usul bilan assotsiatsiya usulini badiiy mushtarak holatga keltirishga erishgan. Shu bilan birgalikda, Bobur hayotidagi eng muhim voqealarni, Boburga yaqin bo'lgan tarixiy dalillarni, uning ruhiy-ma'naviy holatlarini bir nuqtada jamlashga erishgan. Sof badiiy-psixologik talqin orqali Bobur obrazi mohiyatini muvofiq darajada yoritgan.

### Adabiyotlar

Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи. – Б. 250.

Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 395.].

Султон Х. Нуқта /Бобурнинг тушлари. – Т.: Ғ.Ғулум, 1993. – Б. 228.

## Possibilities of historical narratives

Olmos Khurramov<sup>1</sup>

### Abstract

The paper highlights the historical story potentials as well as the fact that its author mostly relies on historical sources and historical data. Simultaneously, we see a certain continuation of Babur's realistic storytelling traditions in contemporary Uzbek language. The novels "O'tkan kunlar" ("The days bygone") and "Mehrobdan chayon" ("Scorpion from the Altar") by A. Qadiri eloquently demonstrate this feature.. And, it is also noted that the methods of bobur narration are highlighted in the prose of G. Gulam, Oybek, O. Yagubov, P. Kadyrov, H. Sultans too.

**Key words:** *historical story, story genre, image of Babur and Baburites, historical sources.*

### Referances

Hotamov, N., Sarimsokov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-ўзбекча izohli luğati. – Т.: Ўқитувчи.

Kuronov, D. va boshkalar. Adabiyotshunoslik luğati. – Т.: Akademnashr, 2010.

Sulton, Kh. Nukta /Boburning tushlari. – Т.: Ғ.Ғулум, 1993.

---

<sup>1</sup> *Olmos U. Khurramov* – Teacher. Alisher Nava'i Tashkent State university of Uzbek language and literature.

**E-mail:** khurramov.o@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0009-0001-4388-4526

**For citation:** Khurramov, O.U. 2023. "Potential for narratives about history" *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 23-28.